



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	



O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: kb.yusupov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda agroinvestitsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi mexanizmlari, jumladan, bank kreditlari, davlat subsidiyalari, agrolizing, qishloq xo'jaligi sug'urtasi va xalqaro moliya institutlari mablag'larining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida agrosohani moliyalashtirish tizimida mavjud masalalar, xususan, bank kreditlari ulushining yuqoriligi, muqobil moliyalashtirish vositalarining to'liq shakllanmaganligi hamda kichik fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha keng emasligi aniqlangan. Ushbu masalalarni hal etish bo'yicha moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, agrolizing va sug'urta tizimini rivojlantirish hamda raqamli moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agroinvestitsiyalar, moliyalashtirish mexanizmlari, bank kreditlari, agrolizing, qishloq xo'jaligi sug'urtasi, investitsiya samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the current mechanisms for financing agro-investments in Uzbekistan, including bank loans, government subsidies, agricultural leasing, agricultural insurance, and funding provided by international financial institutions. The study identifies several relevant issues within the agricultural financing system, particularly the high share of bank lending, the incomplete formation of alternative financing instruments, and the need to expand small farms' access to financial resources. To address these issues, recommendations have been developed to diversify financing sources, improve agricultural leasing and insurance systems, and expand the use of digital financial technologies.

Keywords: agro-investments, financing mechanisms, bank lending, agricultural leasing, agricultural insurance, investment efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализированы действующие механизмы финансирования агроинвестиций в Узбекистане, включая банковское кредитование, государственные субсидии, агролизинг, сельскохозяйственное страхование и средства международных финансовых институтов. В результате исследования выявлены актуальные вопросы системы финансирования аграрного сектора, в частности высокая доля банковского кредитования, недостаточная сформированность альтернативных финансовых инструментов, а также необходимость расширения доступа малых фермерских хозяйств к финансовым ресурсам. Для решения данных вопросов разработаны предложения по диверсификации источников финансирования, развитию агролизинга и системы сельскохозяйственного страхования, а также расширению использования цифровых финансовых технологий.

Ключевые слова: агроинвестиции, механизмы финансирования, банковское кредитование, агролизинг, сельскохозяйственное страхование, эффективность инвестиций.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim va ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U yalpi ichki mahsulotning taxminan 18–20 foizini tashkil etadi, aholining qariyb 25 foizini ish bilan ta'minlaydi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" [1] hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [2] agrar sohani innovatsion asosda jadal rivojlantirish, dehqon va fermerlarning daromadini oshirish, kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish vazifalarini belgilab berdi. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirishning asosiy sharti — bu agrosanoat majmuasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni barqaror va xilma-xil manbalar hisobidan moliyalashtirishdir.



Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, agrosohada investitsion faollik asosan bank kreditlari, xususan, "Agrobank" AJ resurslari hamda davlat budjeti subsidiyalari hisobiga ta'minlanmoqda. Muqobil moliyalashtirish vositalari — agrolizing, qishloq xo'jaligi sug'urtasi, kapital bozori vositalari va kooperativ moliyalashtirish kabi mexanizmlar esa hali to'liq shakllanish bosqichida. Bu holat, ayniqsa, kichik dehqon va fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2025-yil 14-aprelda qabul qilingan "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi O'RQ-1056-son Qonuni [3] va shu asosda tashkil etilayotgan Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi, shuningdek, klaster tizimini moliyalashtirishning yangi mexanizmlariga o'tish borasidagi qarorlar agrosohani moliyalashtirish tizimini institutsional jihatdan yangilash bosqichi boshlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu islohotlarning amaliyotga tatbiq etilishi ayrim institutsional nomutanosibliklar va takomillashtirishni talab etadigan masalalarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda agroinvestitsiyalarni moliyalashtirishning mavjud mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan taklif va yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari nazariyasi iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan bo'lib, jumladan, J. Shumpeter innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda kredit resurslarining rolini, F. Modilyani va M. Miller esa firma kapital tuzilmasi va moliyalashtirish manbalari tanlovining investitsion qarorlarga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab bergan [6; 7]. Xalqaro adabiyotda, xususan, FAO va Jahon banki nashrlarida qishloq xo'jaligi moliyasiga bag'ishlangan ishlar agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari — mavsumiylik, iqlim tavakkalchiligi va uzoq muddatli aylanma kapital talabini alohida ta'kidlaydi. Ushbu xususiyatlar an'anaviy bank kreditlashning ushbu sohada cheklangan samaradorligini keltirib chiqaradi. Shu sababli lizing, sug'urta, kafolat fondlari va kooperativ moliyalashtirish kabi muqobil moliyaviy vositalarning ahamiyati alohida qayd etiladi [8]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan 2024-yilda chop etilgan "O'zbekiston qishloq xo'jaligida muqobil moliyaviy mexanizmlar" tadqiqoti O'zbekiston agrar moliyalashtirish tizimini xalqaro — MDH davlatlari, AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilib, kichik fermer xo'jaliklarining moliya va zamonaviy texnologiyalarga kirish yo'lidagi ko'p qirrali masalalarni aniqlagan hamda mikromoliyalashtirish, qishloq xo'jaligi kooperativlari, lizing va sug'urtani kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Ushbu tadqiqot mazkur maqolaning uslubiy asoslaridan biri sifatida qo'llanildi [9].

Shuningdek, Ismoilov o'zining izlanishlarida milliy iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari o'rganilgan, mavjud mexanizmlarning qaysi jihatlari yanada rivojlantirilishi kerakligi muhokama qilingan [10]. Shu bilan birga, mavjud adabiyotda 2025–2026-yillarda qabul qilingan agrar sug'urta qonunchiligi va klaster tizimini moliyalashtirishning yangi tartibi kabi so'nggi institutsional o'zgarishlarning amaliy natijalari, ularning bank kreditlash tizimi bilan o'zaro bog'liqligi hali yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni eng so'nggi rasmiy ko'rsatkichlar asosida agrosohani moliyalashtirish mexanizmlarining joriy holatini kompleks baholashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, monografik tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, "Agrobank" AJ matbuot xizmatining 2025–2026-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari, shuningdek, UNDP, Jahon banki va Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston bo'yicha loyiha hujjatlari va hisobotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda agroinvestitsiyalarni moliyalashtirish tizimining institutsional negizini PF-5853 va PF-60-son farmonlari [1; 2], shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari tashkil etadi. Ushbu hujjatlar doirasida moliyalashtirishning asosiy vositasi sifatida Qishloq xo'jaligi jamg'armasi faoliyat yuritib, u orqali klasterlar, fermer xo'jaliklari va boshqa agrar korxonalariga imtiyozli shartlarda kredit resurslari va grantlar taqsimlanadi. 2025-yilda qabul qilingan sug'urta qonunchiligi va klaster moliyalashtirish tizimidagi islohotlar ushbu institutsional bazani yanada kengaytirdi.



Agrosohani bank kreditlash orqali moliyalashtirishda “Agrobank” AJ yetakchi o‘rinni egallaydi. Bank matbuot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunida bankning aktivlari 103,6 trln so‘mga yetib, bank tizimida ikkinchi o‘rinni egalladi, kredit qo‘yilmalari portfeli 81,1 trln so‘mni tashkil etdi. Yil davomida jami 42,2 trln so‘m kredit ajratilgan bo‘lib, shundan 23,1 trln so‘mi mikro, kichik va o‘rta biznes loyihalariga yo‘naltirildi. 2025-yilda mamlakatda paxta xomashyosining 80 foizi va boshqali don hosilining 95 foizi aynan “Agrobank” tomonidan moliyalashtirilgan, paxta va g‘alla yetishtirish uchun 15 trln so‘m kredit ajratilgan. Suv tejoychi texnologiyalar uchun 2,4 trln so‘m, sug‘orish nasoslarini quyosh panellari bilan jihozlash uchun qariyb 1 trln so‘m yo‘naltirilgan. 2026-yilga bank tomonidan 56,2 trln so‘m kredit ajratish rejalashtirilgan, bu 2024-yilga nisbatan 24,2 trln so‘mga ko‘pdir. Ushbu ko‘rsatkichlar bank kreditlash hajmining izchil o‘sib borayotganini tasdiqlaydi, biroq ayni paytda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ham ko‘rsatadi. Ya‘ni, agrosoha moliyalashtirishida bitta ixtisoslashgan bank ulushining yuqoriligi kuzatilmoqda. Bunday holat banklararo raqobatni kengaytirish, mijozlar uchun muqobil kredit shartlarini shakllantirish hamda tarmoq moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Davlat qishloq xo‘jaligi investitsiyalarini bevosita subsidiyalash orqali ham qo‘llab-quvvatlamoda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi texnikasi xaridini rag‘batlantirish uchun joriy yilda 1 trln so‘m subsidiya va texnika ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun yana 200 mlrd so‘m ajratilishi, shuningdek, zamonaviy texnika xaridiga yo‘naltiriladigan moliyalashtirish hajmining 2025-yildagi 250 mln dollardan joriy yilda 400 mln dollargacha oshirilishi rejalashtirilgan. Meva-sabzavotchilik klasterlariga aylanma mablag‘ uchun Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi hisobidan 1 yil muddatga 10 foiz stavkada kredit resurslari ajratilmoqda, paxta maydonlariga esa tuproq unumdorligini oshirish maqsadida har gektariga 1 mln so‘mdan moliyaviy grant berilmoqda. Klaster tizimini moliyalashtirishning yangi tartibiga o‘tish uchun davlat budjetidan 10 trln so‘m va Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasiga qo‘shimcha 100 mln dollar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

Agrolizing, ya‘ni qishloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalari uzoq muddatli ijara asosida moliyalashtirish rivojlangan davlatlarda agrar investitsiyalarning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Biroq O‘zbekistonda bu moliyaviy vosita hali keng qo‘llanish bosqichiga o‘tmagan va asosiy e‘tibor to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank kreditlashga qaratilgan. Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar ijobiy istisno sifatida ajralib turadi: Jahon bankining “Farg‘ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish” loyihasi doirasida Andijon viloyati Oltinko‘l, Namangan viloyati Chust va Farg‘ona viloyati Rishton tumanlarida intensiv meva-sabzavotchilik bo‘yicha sinov loyihalari amalga oshirilmoqda. Xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (IFAD), Yevropa Ittifoqi va “Hamkorbank” hamkorligida ishga tushirilgan dastur esa qariyb 4 000 ta pul o‘tkazmalari oluvchi va vatanga qaytgan mehnat migrantlari oilalariga qishloq tadbirkorligini rivojlantirish va moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishga qaratilgan — bu diaspora resurslarini agrar investitsiyalarga jalb etishning istiqbolli modeli hisoblanadi.

2025-yilda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonun [3] agrar moliyalashtirish tizimidagi muhim yangilik hisoblanadi. Qonunga ko‘ra, davlat tomonidan Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi jamg‘armasi tashkil etiladi, sug‘urta mukofotlarining bir qismi va qoplanmagan zarar davlat budjeti subsidiyalari hisobidan qoplanadi, 2025-yil yakuniga qadar tegishli axborot tizimi ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, qonunda klaster, fermer xo‘jaliklari va boshqa agrar korxonalarining imtiyozli kreditlar bo‘yicha qarzdorliklari qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklari sug‘urtasi shartnomasi bo‘yicha qoplanmasligi belgilangan — bu kredit va sug‘urta mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

O‘zbekistonda agroinvestitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy mexanizmlari (2025–2026-yillar holatiga ko‘ra)¹

Mexanizm	Tavsif	Miqyosi
Bank kreditlash	“Agrobank” AJ orqali paxta, g‘alla va MChB loyihalarini kreditlash	42,2 trln so‘m (2025-yil jami kredit)
Davlat subsidiyasi/grant	Suv tejoychi texnologiya, texnika xaridi, tuproq unumdorligi grantlari	1 trln so‘m (texnika subsidiyasi, joriy yil rejasi)
Klaster jamg‘armasi krediti	Meva-sabzavot klasterlariga aylanma mablag‘, 10% stavka, 1 yil	Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi hisobidan
Agrolizing	Qishloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalari lizingga berish	Rivojlanish bosqichida
Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi	Iqlim va boshqa tavakkalchiliklardan hosil sug‘urtasi	2026-yildan joriy etilmoqda
Xalqaro moliya institutlari	Jahon banki, IFAD, EI loyihalari orqali grant va kredit	Sinov hududlarida (Farg‘ona vodiysi)

1 Manba: “Agrobank” AJ matbuot xizmatining 2025-2026-yillarga oid rasmiy ma’lumotlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ochiq ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan



O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirish tizimini tahlil qilish jarayonida bir qator muhim tizimli masalalar aniqlandi. Ushbu masalalar agroinvestitsiyalar samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Agrosohani moliyalashtirishda "Agrobank" AJ ulushining yuqoriligi kuzatilmoqda. Bu holat tarmoqda banklararo raqobatni kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi;

Kapital bozori vositalari, jumladan, agrar obligatsiyalar va qishloq xo'jaligi investitsiya fondlaridan foydalanish amaliyoti hali yetarli darajada shakllanmagan;

Agrolizing va qishloq xo'jaligi sug'urtasi qamrovi, ayniqsa, kichik dehqon va fermer xo'jaliklari orasida kengaytirishni talab etmoqda. Garov ta'minoti talablari ushbu toifadagi ishlab chiqaruvchilar uchun muhim cheklavlardan biri bo'lib qolmoqda;

Yangi joriy etilayotgan qishloq xo'jaligi sug'urtasi tizimi bilan imtiyozli kreditlash mexanizmlari o'rtasida muvofiqlashtirishni yanada kuchaytirish zarur. Xususan, imtiyozli kreditlar bo'yicha qarz majburiyatlari sug'urta qamrovidan tashqarida qolmoqda;

Moliyalashtirish imkoniyatlarida hududiy farqlar saqlanib qolmoqda. Sinov loyihalari asosan bir necha tanlangan tumanlar bilan cheklangan;

Raqamli moliyaviy texnologiyalar, ya'ni kredit skoringi va masofaviy monitoring tizimlari joriy etilishi hali dastlabki bosqichda bo'lib, tizim miqyosida keng qo'llash imkoniyatlari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda agroinvestitsiyalarni moliyalashtirish hajmi izchil o'sib bormoqda, institutsional-huquqiy baza kengaymoqda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sug'urtasi va klaster moliyalashtirish sohasida muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, moliyalashtirish tizimida bank kreditlari ulushi, xususan, bitta ixtisoslashgan bankning roli yuqori bo'lib qolmoqda, muqobil vositalar — lizing, sug'urta, kapital bozori vositalari, mikromoliyalashtirish esa yetarli darajada rivojlanmagan. Ushbu tizimni takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Moliyalashtirish manbalarini institutsional diversifikatsiya qilish. Markaziy bank va Qishloq xo'jaligi jamg'armasi ishtirokida qayta moliyalashtirish va kafolatlash mexanizmlarini joriy etish orqali boshqa tijorat banklarini ham agrosohani kreditlashga faol jalb qilish, shu bilan "Agrobank" AJga yuklamani kamaytirish va bank tizimida raqobatni kuchaytirish;

Kapital bozori vositalarini rivojlantirish. Yirik agroinfratuzilma loyihalari uchun agrar obligatsiyalar chiqarish, ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi investitsiya fondlarini tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik shartnomalari doirasida xususiy investorlarni jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish;

Agrolizingni kichik xo'jaliklar darajasida kengaytirish. Dehqon va fermer xo'jaliklari uchun soddalashtirilgan lizing shartlarini joriy etish, ko'chma mulk (texnika, hosil) asosidagi garov reestrlarini yaratish orqali an'anaviy ko'chmas mulk garovi talabiga bog'liqlikni kamaytirish;

Kredit va sug'urta tizimlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi qamrovini imtiyozli kredit qarzdorliklariga ham bosqichma-bosqich kengaytirish, sug'urta axborot tizimini tezkor ishga tushirish va uni bank kredit reestrlari bilan integratsiya qilish;

Mikromoliyalashtirish va kooperativ modellarni kengaytirish. "Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi, Yevropa Ittifoqi hamda «Hamkorbank» ATBning qo'shma moliyalashtirish tashabbusi" dasturi kabi pul o'tkazmalari va mehnat migrantlari resurslariga asoslangan moliyalashtirish modellarini boshqa hududlarga tarqatish, qishloq xo'jaligi kooperativlarini rivojlantirish uchun soliq va kredit rag'batlarini kuchaytirish;

Agrosoha moliyalashtirishini raqamlashtirish. "Agrobank"ning sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosidagi sinov loyihalarini tizim miqyosida joriy etish, an'anaviy kredit tarixi va garovga ega bo'lmagan kichik fermerlar uchun muqobil ma'lumotlar (masofaviy monitoring, hosildorlik tarixi) asosidagi raqamli kredit skoringi tizimlarini ishlab chiqish;

Hududiy muvozanatni ta'minlash. Farg'ona vodiysidagi kabi sinov loyihalari natijalarini tahlil qilib, ularning muvaffaqiyatli tajribasini mamlakatning boshqa qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish agroinvestitsiyalarni moliyalashtirish tizimining barqarorligi va xilma-xilligini ta'minlab, kichik fermer xo'jaliklarining moliya resurslariga kirish imkoniyatini kengaytiradi hamda, oxir-oqibat, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirish vazifalarining bajarilishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 14-apreldagi "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi O'RB-1056-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-7477632>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-273-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6055539>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi va investitsiyalar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar.
6. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. *American Economic Review*, 48(3), 261–297.
8. FAO. (2026). *FAO Investment Centre – Annual Review 2025*. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
9. UNDP. (2024). *Alternative Financial Mechanisms in Agriculture for Uzbekistan*. United Nations Development Programme, Uzbekistan.
10. Ismailov, D. A. (2024). Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 9-son, 236–241.
11. "Agrobank" ATB matbuot xizmati. (2026). 2025-yil yakunlari va 2026-yilga mo'ljallangan kredit rejalari bo'yicha rasmiy axborot.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>